

# Investitsiya va shaharsozlik loyihalari bilan tanishildi



Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-aprel kuni Toshkent shahrida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Toshkent shahrida 2021-2023-yillarda umumiy qiymati 10,7 milliard dollarlik 1390 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish va qariyb 98 mingta ish o'rni yaratish rejalashtirilgan. Jumladan, joriy yilda jami 4,1 milliard dollar investitsiyalarni o'zlashtirish belgilangan.

Birinchi chorakda poytaxtda 1,8 trillion so'mlik 130 ta loyiha ishga tushirildi va 2 mingga yaqin ish o'rni yaratildi. Jumladan, sanoat yo'naliشida 55 ta, xizmat ko'rsatish sohasida 63 ta, uy-joy qurilishida 12 loyiha amalga oshirildi.

Taqdimotda yil yakuniga qadar amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar to'g'risida ma'lumot berildi. Misol uchun, Mirzo Ulug'bek tumanida yiliga 110 ming tonna metalldan quyma po'lat, armatura, ugolnik, shveller kabi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxona tashkil etiladi va 200 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Yil yakuniga qadar qiymati 30 trillion so'mdan ziyod 847 ta loyihani amalga oshirish va qariyb 36 mingta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, Toshkent shahrida 2021-2023-yillarda 3 milliard dollarlik eksport rejalashtirilgan. Joriy yilning o'zida umumiy qiymati 800 million dollardan ziyod bo'lgan sanoat mahsulotlari, qariyb 70 million dollarlik meva-sabzavotni eksport qilish kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan chegaralanmasdan, qo'shimcha loyihalarni ko'paytirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va hajmini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.


Taqdimotda, shuningdek, Andijon shahri yaqinida qurilishi rejalashtirilgan "Yangi Andijon" turar joy massivining bosh rejası haqida ham ma'lumot berildi.

Andijon - mamlakatimizda aholi eng zich joylashgan shaharlardan. Shaharning o'zida rivojlanish uchun bo'sh joy yo'q.

Umumiy maydoni qariyb 4 ming hektar bo'lgan yangi shaharning bosh rejasiga ko'ra, u 1439 hektar turli qurilmalar, ya'ni uy-joy, savdo maskanlari va kichik sanoat zonasi, 1820 hektar yashil hudud, 223 hektarlik xizmat ko'rsatish hududi va 499 hektar yo'llardan iborat bo'ladi.

Eng muhimmi, bu massiv aholi uylari bo'Imagan, qishloq xo'jaligida foydalanimaydigan bo'sh maydonda barpo etiladi. Turar joy massivi qurilishi natijasida 411 ming nafar aholi yashashi mumkin bo'lgan yangi shaharcha paydo bo'ladi.

Prezident loyiha bilan tanishib, uy-joylarni puxta va sifatli loyihalashtirish, uni amalga oshirishda mahalliy mutaxassislarning salohiyatidan unumli foydalanish, unda imkon qadar ko'proq yashil hududlar, bog' va xiyobonlar tashkil etilishini, aholining dam olishi va mehnat qilishi uchun qulay sharoitlarni nazarda tutish bo'yicha topshiriqlar berdi.





*Manba*